INKLYUZIV TA'LIM ISLOHOTLARI

Vol 1 № 2 2026

NUTQIY APPARAT BUZILISHLARIDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARINING XOS XUSUSIYATLARI

Melikuziyeva Fotimaxon Sobitjon qizi

Qo'qon Davlat Universiteti “Logopediya” yo’nalishi 1-kurs magistranti

Sobitjanovna.f@gmail.com

Mahmudova Madinaxon Sobirxonovna

Ilmiy rahbar: PhD dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy apparat buzilishlariga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik o‘yin texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Logopedik o‘yinlarning nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati, ularning korreksion-pedagogik jarayondagi o‘rni hamda bolalarning fonetik, leksik va grammatik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada nutqiy apparat buzilishlarida qo‘llaniladigan ijodiy, didaktik va qoidali o‘yinlarning mazmuni hamda ularni tashkil etish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy apparat buzilishi, logopediya, logopedik o‘yin texnologiyalari, nutq rivojlanishi, korreksion ta’lim, didaktik o‘yin, ijodiy o‘yin, qoidali o‘yin, fonetik rivojlanish, kommunikativ ko‘nikma, maxsus pedagogika, logopedik mashg‘ulot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности логопедических игровых технологий, применяемых в работе с детьми, имеющими нарушения речевого аппарата. Проанализирована роль логопедических игр в развитии речи, их

Inklyuziv ta'lim islohotlari

значение в коррекционно-педагогическом процессе, а также эффективность в формировании фонетических, лексических и грамматических навыков речи. Кроме того, описаны содержание творческих, дидактических и игр с правилами, используемых при нарушениях речевого аппарата, и методика их организации.

Ключевые слова: нарушение речевого аппарата, логопедия, логопедические игровые технологии, развитие речи, коррекционное обучение, дидактическая игра, творческая игра, игра с правилами, фонетическое развитие, коммуникативные навыки, специальная педагогика, логопедическое занятие.

Abstract. This article discusses the specific features of speech therapy game technologies used in working with children who have speech apparatus disorders. The role of speech therapy games in speech development, their importance in the corrective-pedagogical process, and their effectiveness in developing phonetic, lexical, and grammatical speech skills are analyzed. The article also describes the content of creative, didactic, and rule-based games used in speech therapy practice and the methodology of their implementation.

Keywords: speech apparatus disorder, speech therapy, speech therapy game technologies, speech development, corrective education, didactic game, creative game, rule-based game, phonetic development, communicative skills, special pedagogy, speech therapy session.

O'yin bola faoliyatining asosini tashkil etadigan ko'rinishlardan biridir. Bolalar kamolati yo'lida ishlab chiqilayotgan turli o'yinlar nazariyasi ta'lim-tarbiya uchun ham naqadar qimmatlidir. Jufa qadim zamondan boshlab ko'plab olimlar, tadqiqotchilar, ma'daniyat tarixchilari o'zlarining olib borgan tadqiqot ishlarida o'yinning o'ziga xosligi, uning nafaqat alohida shaxs hayoti balki jamiyat hayotida turgan o'rni va ahamiyati haqida

Inklyuziv ta'lim islohotlari

fikrlar bildirganlar. Ular o'yinning qadrini uning shartliligini, uning bolalar xulqini shakllantirishdagi o'rnini, muomala-munosabati chog'idagi bolaning hatti-harakatlarini aniqlab olishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Shunday qilib o'yinni "bolalikning hamrohi" deb atash mumkin. O'yin ayniqsa maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmuni tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ishlarning ko'pchiligi o'yin shaklida bo'ladi. O'yin chog'ida bolada mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi uning holati xotirasi ko'chli ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo'ladi. Maxsus ta'limda ham logopedik mashg'ulotlar jarayonida olib boriladigan logopedik o'yinlarning o'ziga hosligi va mohiyati ham alohida mazmun kasb etadi.Logopedik o'yinlarning bola tarbiyasidagi o'rni va tutgan mavqei ham o'ziga hos sifatlarga ega. chunonchi logopedik o'yinlar o'zining tashkil etilishi va mazmuniga ko'ra, bolalarga ta'sir etish darajasiga ko'ra o'yinda qo'llaniladigan buyumlarning turlicha, kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Logopedik mashg'ulotlar jaroyonida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun tashkil etiladigan o'yinlarni maxsus ta'lim nazariyasiga ko'ra ikki guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar. Ijodiy o'yinlar mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va o'z taasurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda shu o'yinga bo'lgan munosabatlarni aks ettiradilar.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiritiladi. Qoidali o'yinlar o'z mazmuniga qarab, bolalar yoshiga mo'ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qoidali o'yinlarning ko'pchiligi xalq o'yinlari asosida tashkil etiladi. Bunday qoidali o'yinlarning ko'plari avloddan-avlodga tayyor holda o'tib bizgacha yetib kelgan. O'yinlar o'z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ko'ra shartli ravishda didaktik va musiqiy o'yinlarga bo'linadi. Didaktik o'yinlarda bolalarning avvalo aqliy faoliyati rivojlanib boradi, ular bilimlari

inklyuziv ta'lim islohotlari

chuqurlashadi va kengayadi; harakatli o'yinlarda bolalarning turli hatti-harakatlari takomillashadi: musiqali o'yinlarda esa musiqiy qobilyatlari rivojlanadi. Shuningdek,logopedik o'yinlar orasida ko'ngil asrlari, o'yin ovutmachoqlari ham bo'ladi. Demak har bir logopedik O'yinning o'ziga hos sifatlari mavjud, biroq ular bir qator umumiy xususiyatlarga ham egallar, ya'ni har qanday logopedik o'yinlarda maqsadning mavjudligi, o'yin sabablari, amalga oshirish vositalarning rejali harakatlar va natijaning mavjudligi kabilar xosdir. Har qanday ko'rinishdagi logopediko'yinlar tushunib olingan. Va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani kabi o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati- psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi; oyinda bola faol harakat qiladi, gapiradi va o'z bilimlarini o'yin davomida qo'llaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar uchun o'tkazilayotgan logopedik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ular orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. Bola o'yindagi maqsadiga erishish uchun o'ziga sheriklar tanlaydi. Rollarni tasdiqlaydi. Hullas o'yin faoliyatini muayyan darajada rejalashtiradigan bo'ladi.semak shunga qarab o'yin rivojlanib boradi. Bola o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. O'yin tabiatning erkinligi garchi unda mehnat bilan ko'pgina o'xshashliklar bo'lsada jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyosligi bilan belgilanadi. Bolalarning o'yindagi erkinligi mustaqilligi qo'yidagi holatlarda namoyon bo'ladi: a)o'yin yoki uning mazmunini tanlashda; boshqa bolalar bilan ixtiyoriy birladshishda b) o'yinga kirish va chiqishning ixtiyoriyligida va xokozo. K.D.Ushenskiy bolalarning o'yindagi mustaqilligiga o'ziga xos xususiyat sifatida qarab "O'yin shuning uchun ham o'yinki, u bola uchun mustaqil mashg'lotdir", degan edi. Uning fikricha, o'yin-bolakaylar vaqelik voqeylik bo'lganda ham uni o'rab olgan narsalardan ko'ra juda qiziqarlivoqeylikdir. U bola uchun tushunarli bo'lgani uchun ham qiziqarlidir. Haqiqiy hayotda bola bolaligicha qoladi, u hech qanaqa mustaqillika ega bo'lmagan norasida, biroq o'yinda u boshqacha odam-u endi kamol topayotgan, u endi o'z kuchini sinab ko'ra oladigan va o'zi yaratgan narsasini

inklyuziv ta'lim islohotlari

mustaqil idora eta olasigan insonga aylanib boradi. Turli ko'rinishdagi o'yinlarda qoidalar ham turlicha bo'ladi. Masalan, rolli ijodiy o'yinlarda qoidalar ham turlicha bo'ladi. Masalan roli ijodiy o'yinlarda qoida o'yinmazmuning o'zida rolda, syujetda mujassam bo'ladi. Katta kishi roliga kirgan bola uning u yoki bu vaziyatdagi harakat mos harakat qiladi. Misol uchun shifokor qabuliga qizchasini shakllangan ona kirib kelishi, haydovchining esa ularni mashida eltib qo'yishi. Ijodiy uchun chog'ida buyumlar, roller,harakatlarning shartli xususiyatlarni barcha o'ynovchilar tomonidan birdek qa'bul qilishini eng umumiy qoida hisoblanadi. Busiz o'yin bo'lishi mumkin emas.masalan,"tabiati qo'yniga sayr" qilayotgan bolalar o'z guruhlardagi gilamni dengiz, qo'llaridagi karton trubachani durbin, stol-stullardan qurilgan inshoat-kema ekinligiga ishonmoqlari kerak. Amaliy va didaktik o'yinlarda qoidalar harakatlarning tabiati va izchiligini, o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydi. Qoidalarning xilma-xil bo'lishiga qaramay, o'yin o'ynovchi bolalar barcha hollarda o'yin manfaatlariga bo'ysingan holda ixtiyoriy tarzda bajaradilar, chunki qoidalarning bo'zilishi o'yinning tugashiga va tez tarqab ketishiga olib keladi.Bolalar esa kundalik hayot talablarini bajarishga qaraganda o'yin qoidalarini bajarishga bir muncha toqat, diqqat, chidammlilik ko'rsatadilar. Bunday paytida qoidalar bolalar hatti-harakatini boshqaruvchi mexanizm sifatida asqotadi.

O'yinda bolaning tafakkuri va hayolati faol ishlaydi. Tashabbus va ijodiylik ko'rsatish turli ko'rinishdagi o'yinlarda turlichadir. Ba'zi hollarda u o'yin syujetining ko'rilishi va mazmuning tanlashi, rollarning taqsimlanishi o'yin vaziyatini yaratishdagi topqirlik bilan bog'liqdir. Ikkinchi bir hollarda esa ijodiylik harakat usullarini tanlashda namoyon bo'ladi.(berkinmachoq, to'p o'yini boshqotirma kabi o'yinlar). Uchinchi bir holda bilim va ko'nikmalarini tez safarbar etishda (latto rolli ijodiy o'yinlar). Ko'pchilik o'yinlar sheriklar harakatlarini oldindan ko'ra olishni va shundan kelib chiqib, o'z hatti-harakatini yoki harakat usulini o'zgartirishni talab qiladi. (Shashka, latto, rolli o'yin) dramalashtirilgan o'yinlarda ijodiylik, ifodalilik

inklyuziv ta'lim islohotlari

vositalarining tanlanishida (mimika, pantomimo; ovoz ohang) namoyon bo'ladi. Shunday qilib logopedik o'yinlar maktabgacha ta'lim yoshidagi nutq, to'liq rivojlanmagan bolalarning aqliy, nutqiy qobilyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida yuzaga chiqadi va o'ziga hos xususiyatlar bilan birga o'ziga xos tarzda nomoyon bo'ladi. Maxsus ta'limda ham logopedik mashg'ulotlar jarayonida olib boriladigan logopedik o'yinlarning o'ziga hosligi va mohiyati ham alohida mazmun kasb etadi. Logopedik o'yinlarning bola tarbiyasidagi o'rni va tutgan mavqei ham o'ziga hos sifatlarga ega. O'yin bola faoliyatining asosini tashkil etadigan ko'rinishlardan biridir. Bolalar kamolati yo'lida ishlab chiqilayotgan turli o'yinlar nazariyasi ta'limtarbiya uchun ham naqadar qimmatlidir.

Xulosa. Nutqiy apparat buzilishlariga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik o‘yin texnologiyalari korreksion-ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Logopedik o‘yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshirish, tovush talaffuzini to‘g‘rilash, lug‘at boyligini kengaytirish hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarning mashg‘ulotlarga qiziqishini kuchaytiradi, ularning bilish faoliyatini faollashtiradi va nutq kamchiliklarini bartaraf etish jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, ijodiy, didaktik va qoidali o‘yinlar orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalari rivojlanadi. Demak, logopedik o‘yin texnologiyalari nutqiy apparat buzilishlarini korreksiya qilishda samarali pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
2. Mo‘minova L.R. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Po‘latova P.M., Nurmuxamedova L.Sh. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

Inklyuziv ta'lim islohotlari

4. Volkova L.S. Logopediya. – Moskva: VLADOS, 2008.
5. Levina R.Ye. Osnovi teorii i praktiki logopedii. – Moskva: Prosveshcheniye, 1968.
6. Filicheva T.B., Chirkina G.V. Korrektsionnoe obuchenie i vospitanie detey s narusheniyami rechi. – Moskva: Prosveshcheniye, 2002.
7. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
10. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

Inklyuziv ta'lim islohotlari